Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 82

ADABIYOT, MADANIYAT VA IJODIY TARJIMA

INGLIZ VA O‘ZBEK BOLALAR FOLKLOR QO‘SHIQLARIDA ONOMOTOPEIK BIRLIKLAR QO‘LLANISHINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Gulasal Farxodjon qizi Yoqubova*

Farg’ona davlat universiteti

✉ gulasalyoqubova44@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek bolalar folklor qo‘shiqlarida onomotopeik birliklarning tarkibi, qo‘llanishi, ularning har ikki xalqqa xos lingvokulturologik xususiyatlari hamda ingliz va o‘zbek xalqining madaniy hayotidagi tutgan o‘rni kabi jihatlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar

onomotopeik birliklar, tovushga taqlid, obrzaga taqlid, mimemalar.

DOI: 10.5281/zenodo.23278774

Lingvokulturologiyada taqlid so‘zlar har bir tilning milliy-madaniy xususiyatlarini ochib beruvchi muhim ekspressiv til birliklaridan biri hisoblanadi. Ular atrofimizni o‘rab turgan muhitda(odam, hayvon, qush, jonsiz predmetlarda) uchraydigan ovoz(tovush)ni qayta tiklab, tovush obrazi sifatida, predmetlar harakati tasvirini esa harakat obrazi sifatida ifodalaydi. Shunga ko‘ra taqlid so‘zlar ikki xil: tovushga taqlid so‘zlar va obrazga(tasvirga) taqlid so‘zlarga bo‘linadi[1]. Hozirda taqlid so‘zlar ko‘pgina tillarda onomatopiya va mimemalar deb ham ataladi.

Taqlid so‘zlarning ingliz va o‘zbek bolalar folklor qo‘shiqlari misolida ko‘radigan bo‘lsak, ushbu ikki tilning fonologik tizimidagi farqlanishlar tufayli bir xil tovush yoki hodisa ingliz va o‘zbek xalqi tomonidan turlicha onomotopik birliklar orqali ifodalanishi mumkin. Har ikki tilda ushbu birliklarning ifodalanishi ingliz va o‘zbek tillarining fonetik jihatdan shakllanishi va tovush imkoniyatlari hamda milliy nutq an’analaridan kelib chiqqan holda namoyon bo‘ladi. Tabiatda uchraydigan tabiiy va hayvon tovushlari fizik-akustik xususiyatlariga ko‘ra ingliz va o‘zbek xalqi uchun bir xil bo‘lsa-da, ularni inson eshitish a’zolari orqali eshitib, qayta inson nutq organlari orqali artikulatsion jihatdan ifodalanishida milliy nutq an’analari va tilning fonetik imkoniyatlariga ko‘ra farqlanishi mumkin. Shu sababli ham taqlid so‘zlarni tabiiy tovushlarning aynan nusxalanishidan ko‘ra, tovushning milliy-madaniy jihatdan konseptuallashtirish hodisasi sifatida talqin qilish to‘g‘riroq bo‘ladi. Masalan, quyidagi ingliz va o‘zbek bolalar folklor qo‘shig‘ida xo‘rozning qichqirishiga nisbatan qo‘llanilgan taqlid so‘zlar o‘rtasidagi farqlanishlarni ko‘rishimiz mumkin:

Cock-a-doodle-do! (Qu-qu- qu!)

My dame has lost her shoe, (Bekam tuflisini yo‘qotib qo‘ydi,)

My master’s lost his fiddle-stick (Xo‘jayinim esa skripka kamonchasini)

[1]Е. Шоабдураҳмонов, М. Асқарова, А. Ҳожиев, И. Расулов, Х. Дониёров. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б. 441.

And knows not what to do[2].(Endi nima qilishni bilmayapti.)

O‘zbek bolalar folklor qo‘shig‘ida esa ushbu taqlid so‘z quyidagicha ifodalanadi:

Qu-qu-qu xo‘rozim,

Toji tilla xo‘rozim…[3]

Yuqoridagi misollarda ko‘rish mumkinki, o‘zbek bolalar folklor qo‘shig‘ida qo‘llanilgan *qu-qu-qu* taqlid so‘zi xo‘rozning qichqirishiga bevosita verbalizatsiya qilish darajasi ingliz tilidagi *cock-a-doodle-do* dan ko‘ra ancha reallikka yaqin. O‘zbek tiloidagi taqlid so‘zda referentga xos bo‘lgan akustik belgilar faqatgina sof taqlid so‘z orqali ifoda qilinadi. Umuman olganda, xo‘rozning qichqirishi barcha xalqlarda akustik jihatdan bir xil qabul qilinsa-da, uning verbal jihatdan ifoda etuvchi taqlid so‘zlar bir-biridan sezilarli darajada farqlanishi mumkin. Ingliz va o‘zbek tillaridagi misollardan tashqari ispan tilida **“***quiquiriqui***”**, tagalog tilida **“***tiktilaok***”**, hind tilida esa **“***ku-kudu-koo”* tarzida ifodalanadi[4].

Ingliz tilidagi ekvivalentida esa taqlidiy birlikning birinchi qismi *cock*, ya’ni ingliz tilidagi xo‘roz so‘zi bilan boshlanmoqda. *Cock* so‘zi qadimgi ingliz tilidagi *cocc* ya’ni “erkak qush” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, etimologik jihatdan qadimgi fransuz tilidagi *coc* hamda qadimgi sandinav tilidagi *kokkr* so‘zi bilan bog‘lanadi. Shuningdek *xo‘roz* so‘zi alban tilida *kokosh*, yunon tilioda *kikkos*, sanskrit tilida *kukkuta*, malay tilida esa *kukuk* so‘zlari orqali ifodalanadi. Ahamiyatlisi shundaki, yuqoridagi so‘zlarning barchasi tovushga taqlid asosida yasalgan hisoblanadi. Anglashiladiki, o‘zbek tilidagi qu-qu-qu taqlid so‘zining tarkibi tovush taqlidiga asoslangan sof taqlid so‘zdan iborat bo‘lsa, ingliz tilidagi *cock-a-doodle-do* taqlid so‘zi tovushga taqlid asosida yasalgan referent nomi hamda tovushga taqlid so‘zdan tashkil topgandir. Demak o‘zbek bolalar folklor qo‘shig‘ida qo‘llanilgan *qu-qu-qu* o‘zbek tilidagi aksariyat taqlid so‘zlar kabi redublikatsiya orqali hosil qilingan bo‘lib, taqlid so‘zning o‘zi orqali referent nomini o‘z ichiga olmasdan tovush taqlidi orqali tovushning manbasini aniqlashtiradi. Shu sababli ham yosh bolalar xo‘roz so‘zini o‘z lug‘at boyliklariga qo‘shishdan oldin uni dastlab *qu-qu* deb atashadi. Ushbu taqlid so‘zning bo‘g‘in tarkibi aynan bir xil bo‘g‘inlar takroridan iborat bo‘lganligi sababli ham endi tili chiqa boshlagan bolalar uchun xo‘roz so‘zining talaffuzidan ko‘ra yengilroqdir. Nemis tilshunosi G.Paul ham bolalar tiliga to‘xtalar ekan, uning poetik xarakterda bo‘lishini qayd etadi hamda “*tu-tu*”(tovuqqa taqlid), “*mo‘-mo‘* ”(molga taqlid) kabi taqlid so‘zlarning bolalar nutqida katta rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Har qanday til kabi u ham bolalarga o‘tmish avlod bolalaridan yetib kelishini aytib o‘tadi[5]. Bola nutqini antroposntrik jihatdan tadqiq qilgan G.Iskandarova ham bola nutqining shakllanishida kattalar xatti-harakatiga, gap-so‘zlariga taqlid qilish holati keng kuzatilishini, bola o‘zini o‘rab turgan muhitdagi barcha tovush va harakatlarga taqlid qilish orqali o‘z fikrini ifodalashni o‘rganishini ta’kidlab, itning vovullashiga qarab “vov-vov”, “babuv”; mushukning miyovlashiga qarab “miyov miyov”; avtomobilning signal berishiga qarab “bi-bip”, “di-dit” deb ifodalashi keng kuzatilishi kabilarni misol keltiradi[6].

Ingliz bolalar folklor qo‘shig‘i matnida qo‘llanilgan *cock-a-doodle-do* referentning manbasi va tovushga taqlid komponentlarini o‘z ichiga olib kompleks onomatopoeik birlik hosil qilmoqda. Lingvokulturologik jihatdan qaralganda esa *cock-a-doodle-do* onomotopeik birlik sifatida xo‘rozning qichqirishi tovushiga akustik jihatdan aynan mos kelmasa-da, ingliz xalqi madaniyatining ajralmas qismidir. Ushbu birlik ingliz xalqi tomonidan asrlar davomida qo‘llanilib kelishiga qaramay, uning kelib chiqishiga oid aniq ma’lumotlar mavjud bo‘lmasa-da, *cock-a-doodle-do* XVII asrdan boshlab qo‘llanila boshlagan degan taxminlar mavjud. Shunisi shubhasizki, turli xalqlarda o‘z tili imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda turli ekvivalentlari bo‘lsa ham ingliz xalqi o‘z *cock-a-doodle-do* sini kundalik hayotda faol qo‘llashadi. Ushbu onomotopeik birlik ingliz bolalar folklor qo‘shiqlari tarkibida ham ko‘p hollar uchraydi hamda tong otishi va yangi kunning boshlanishi bilan assotsatsiya qilinadi. Badiiy asarlar va filmlarda *cock-a-doodle-do* ko‘p hollarda qishloq yoki yaylov muhitida erta tongni bildirish uchun ishlatiladi. Rasmiy doiralarda ushbu onomotopeik birlik keng qo‘llanilmasa-da,

[2]Burgess B. F. **The Real Mother Goose.** – Chicago: Rand McNally & Co., 1916. – P. 85.

[3]Сафаров О., Очилов К. Бойчечак. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. – Б. 122.

[4]Douglas Harper. Cock-a-doodle-doo // Online Etymology Dictionary. – 2001–2026. – URL: https://www.etymonline.com/word/cock-a-doodle-doo (murojaat sanasi: 29.09.2026).

[5]Пауль Г. Принципы истории языка. – М.: Издательство иностранной литературы, 1960. – С. 221.

[6]Iskandarova G. T. *Bolalar nutqining antropotsentrik tadqiqi*: 10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2026. – B. 21–22.

so‘zlashuvda barvaqt uyg‘onish haqida gapirayotganda yoki o‘ta erta uyg‘onadigan odamga nisbatan “do you wake up to say cock-a-doodle-do?” kabi (“Xo‘rozning o‘rniga qichqirishga turdingmi?”) hazil-mutoyiba tarzida qo‘llash mumkin[7]. Yuqoridagi qo‘shiq matnida ham xo‘rozning qichqirig‘i ovozidan keyin go‘yo xo‘roz bekasi va xo‘jayini haqida tonggi yangiliklarni aytayotgandek hazilkash tarzida tasvirlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Бургесс Б. Ф. The Real Mother Goose. – Chicago: Rand McNally & Co., 1916. – 85 p.

[2] Искандарова Г. Т. Bolalar nutqining antropotsentrik tadqiqi: 10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi: filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2026. – 21–22 b.

[3] Пауль Г. Принципы истории языка. – М.: Издательство иностранной литературы, 1960. – 221 с.

[4] Сафаров О., Очилов К. Бойчечак. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. – 122 б.

[5] Шоабдураҳмонов Е., Асқарова М., Ҳожиев А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – 441 б.

[6] Douglas Harper. Cock-a-doodle-doo // Online Etymology Dictionary. – 2001–2026. – URL: Online Etymology Dictionary — Cock-a-doodle-doo (murojaat sanasi: 29.09.2026).

[7] Understanding “Cock-a-doodle-doo”: An English Phrase Explained [Video]. – YouTube. – URL: YouTube video (murojaat sanasi: 11.09.2026).

[7] Understanding “Cock-a-doodle-doo”: An English Phrase Explained [Video]. – YouTube. – URL: https://youtu.be/DBPTEj4e14o (murojaat qilingan sana: 11.09.2026).